

«широкомасштабный», «долгосрочный» и «серьезный» ущерб, а также снизив порог вины до осознания вероятности наступления последствий.

2. Внедрение корпоративной ответственности: Разработать и принять закон о введении уголовной ответственности юридических лиц за тяжкие экологические преступления. В качестве санкций предусмотреть не только оборотные штрафы, но и запрет на осуществление определенной деятельности, отзыв лицензий на недропользование и принудительную ликвидацию юридического лица.

3. Международная интеграция: Рассмотреть вопрос о присоединении Республики Казахстан к Римскому статуту Международного уголовного суда, что укрепит имидж страны как прогрессивного государства, заботящегося о глобальной экологической безопасности.

4. Специализация судов: Изучить вопрос создания специализированных экологических судов (или выделения специализированных составов судей) с привлечением экспертов-экологов для рассмотрения сложных уголовных дел о промышленном загрязнении.

Природа не признает государственных границ. Защита окружающей среды жесткими, но справедливыми методами уголовного права – это не преграда для экономического развития, а единственный способ гарантировать выживание и устойчивое будущее для грядущих поколений.

Использованные источники / References

- Higgins, P. (2021). *Eradicating Ecocide: Laws and Governance to Prevent the Destruction of Our Planet*. Pluto Press.
- Stop Ecocide Foundation. (2021). *Independent Expert Panel for the Legal Definition of Ecocide: Commentary and Core Text*. Stop Ecocide International.
- Рахметов С.М., Сулейменова Г.Ж. (2023). Қазақстан Республикасының қылмыстық құқығы: Экологиялық қылмыстарды саралау мәселелері. Алматы: Жеті жарғы.
- White, R. (2020). *Transnational Environmental Crime: Toward an Eco-Global Criminology*. Routledge. DOI: 10.4324/9781315886367.
- Борчашвили И.Ш. (2022). Комментарий к Уголовному кодексу Республики Казахстан. Общая и Особенная части. Алматы: Юрист.
- European Commission. (2024). Directive (EU) 2024/1203 of the European Parliament and of the Council on the protection of the environment through criminal law and replacing Directives 2008/99/EC. Official Journal of the European Union.
- Байгулов А.Т. (2021). Экологическая безопасность и инвестиционный климат в Казахстане: правовые аспекты. Вестник КазНУ. Серия юридическая, 98(2), 45-56. DOI: 10.26577/JURIS.2021.v98.i2.04.
- Pereira, R. (2020). *Environmental Criminal Liability and Corporate Compliance: International and Comparative Perspectives*. Edward Elgar Publishing.
- Schabas, W.A. (2022). *An Introduction to the International Criminal Court* (6th ed.). Cambridge University Press.
- Айтжанов А.А. (2023). Халықаралық қылмыстық құқықтағы жаңа тенденциялар: Қазақстан үшін маңызы. Құқық және Мемлекет, 3(92), 112-120.
- Экологический кодекс Республики Казахстан от 2 января 2021 года № 400-VI ЗРК (с изменениями и дополнениями).
- Уголовный кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 226-V ЗРК (с изменениями и дополнениями).

XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR UCHUN TAYINLANADIGAN JAZOLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI



Nurmuhammedova Go'zalxon Bahodirovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası professori, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук (DSc), доцент

University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Laws (DSc), Associate Professor

Annotatsiya. Maqolada xorijiy davlatlar qonunchiligida korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralari va ularning samaradorligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Rossiya, Qozog'iston, Germaniya, Fransiya, Singapur, Yaponiya va Xitoy tajribasi o'rganilgan bo'lib, ularda korruptsiya uchun jazolarning turlari, muddatlari va amalga oshirish mexanizmlari tahlil etilgan. Xalqaro konvensiyalar (BMT, Yevropa Ittifoqi va OESR)da belgilangan "samarali, mutanosib va dahshat soluvchi" (effective, proportionate and dissuasive) jazo prinsiplari tahlil qilingan va ularning milliy qonunchilikka ta'siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistondagi jinoyatga oid huquqiy islohotlar, jazo siyosatini takomillashtirish va yuridik shaxslarning javobgarligini joriy etish zarurati haqida ilmiy takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: korruptsiya, jinoyat, jazo, samaradorlik, muqarrarlik, xalqaro konvensiyalar, huquqiy islohotlar, poraxo'rlik, jinoyat siyosati, yuridik shaxs javobgarligi, mol-mulk musodarasi, davlat xizmati, jamiyat nazorati.

PUNISHMENTS FOR CORRUPTION-RELATED CRIMES IN FOREIGN LEGISLATION AND THEIR EFFECTIVENESS

Abstract. The article provides a comparative legal analysis of punishments for corruption-related crimes and their effectiveness in foreign legislation. It examines anti-corruption practices in Russia, Kazakhstan, Germany, France, Singapore, Japan, and China, as well as international standards, including the UN Convention against Corruption. The study highlights the need to combine criminal sanctions with preventive mechanisms, such as asset confiscation, permanent disqualification from public service, and liability of legal entities. Recommendations are proposed to improve Uzbekistan's criminal law framework in line with international best practices.

Keywords: corruption, crime, punishment, effectiveness, inevitability, international conventions, legal reform, bribery, criminal policy, corporate liability, asset confiscation, public service, public oversight, rule of law.

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf soluvchi jinoyat turi bo'lib, uning oldini olish masalasi davlatning jinoyatga oid siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jinoiy-huquqiy profilaktika deganda, korruptsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilishidan oldin huquqiy choralar orqali bartaraf etishga qaratilgan tizimli faoliyat tushuniladi. Xususan, davlatning jinoiy siyosatida korruptsiyaning oldini olish barcha sohalarida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi [1]. Darhaqiqat, korruptsiyaning oldini olish eng samarali kurash usuli ekani e'tirof etilmoqda, bu borada jinoiy jazolarning muqarrarligi, mansabdor shaxslarning shaxsiy manfaatdorligini cheklash va tizimli profilaktika choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoiy-huquqiy oldini olish faqatgina jazolash emas, balki korrupsiyaviy holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, institutsional va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, jazo samaradorligi quyidagi uch yo'nalishda namoyon bo'ladi:

umumprofilaktika: jazodan qo'rqish jamiyatda jinoyat sodir etilishining oldini olishi lozim. Masalan, yuqori lavozimli shaxsga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosi boshqa mansabdorlar uchun ogohlantiruvchi omil hisoblanadi;

shaxsiy profilaktika: jinoyat sodir etgan shaxsda qayta jinoyat sodir etish ehtimolini yo'qotish. Buning uchun jazo tarbiyaviy va qayta ijtimoiylashtiruvchi vazifani bajarishi kerak;

adolatni tiklash: jamiyat va jabrlanuvchilarda davlatning adolat o'rnatish qudratiga ishonch uyg'otish.

Amaldagi milliy qonunchilikda korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan qator normalar mavjud bo'lsa-da, ularning ijrosi doim ham kutilgan samarani bermayotgani, ayrim huquqiy mexanizmlar samarasiz ekanligi amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda. Shuningdek, jinoiy-huquqiy oldini olishning konseptual asoslarini, turlari va shakllarini qayta ko'rib chiqish, xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar asosida milliy tizimni isloh qilish dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Jinoyat uchun belgilangan jazolar ikki asosiy profilaktika (oldini olish), ya'ni individual va umumiy profilaktika vazifasini bajarishi kerak. Individual profilaktika jazo olgan shaxsni tarbiyalab, uni qayta jinoyat sodir etishdan tiyib turishni nazarda tutadi (ya'ni, jazo o'tash orqali shaxs tuzaladi va boshqa jinoyat qilmaydi). Umumiy profilaktika esa, berilgan jazo misolida boshqa kishilarni hushyorlikka chaqirib, ularni ham shunday jinoyatga qo'l urmaslikka da'vat etish, ya'ni jazoning umumiy qaytaruvchi ta'siridir.

Ushbu maqolada xorijiy davlatlar qonunchiligida korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarining samaradorligini tahlil qilish maqsadida qiyosiy-huquqiy, tizimli, tahliliy va doktrinal usullardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini jinoyat huquqi nazariyasidagi javobgarlik va jazo samaradorligi to'g'risidagi ilmiy qarashlar hamda xalqaro huquqiy standartlar tashkil etadi.

*Birinchi*dan, qiyosiy-huquqiy tahlil usuli orqali Rossiya, Qozog'iston, Germaniya, Fransiya, Singapur, Yaponiya va Xitoy davlatlarining jinoyat qonunchiligida korrupsiya uchun belgilangan jazo turlari, ularning miqyosi va amalga oshirish mexanizmlari o'rganildi. Bu davlatlar turli huquqiy tizimlarga (kontinental, anglosakson va sotsialistik huquq modellari) mansub bo'lgani uchun taqqoslama tahlil keng qamrovli manzara yaratishga imkon berdi.

*Ikkinchi*dan, normativ-huquqiy tahlil usuli asosida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003-y.), Yevropa Kengashining Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi (1999-y.), OESRning Xorijiy mansabdorlarga pora berishga qarshi konvensiyasi (1997-y.) kabi xalqaro hujjatlar va ulardagi "samarali, mutanosib va dahshat soluvchi" (effective, proportionate and dissuasive) jazo prinsiplari tahlil qilindi. Bu prinsiplarning milliy qonunchilikka implementatsiya darajasi ham baholandi.

*Uchinchi*dan, statistik tahlil usuli orqali O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun sudlar tomonidan tayinlanadigan jazolarning turi va taqsimoti o'rganildi. Xususan, 2024-yildagi milliy ma'ruza va rasmiy sud statistikasi ma'lumotlaridan foydalanilib, jazolarning (ozodlikdan mahrum qilish, jarima, axloq tuzatish ishlari va boshqalar) qo'llanish foizi aniqlandi va ularning profilaktik ta'siri baholandi.

*To'rtinchi*dan, tizimli tahlil usuli yordamida jinoiy javobgarlikning ikki asosiy profilaktik vazifasi – umumiy va individual ta'sir funksiyalari ko'rib chiqildi. Bu orqali jazo choralarining nafaqat jazolovchi, balki tarbiyaviy va qayta ijtimoiylashtiruvchi ahamiyati ham ochib berildi.

*Beshinchi*dan, doktrinal va interpretatsion tahlil usuli asosida V.N.Burlakov, M.Yu.Dvovskiy, M.S.Kachelin, T.I.Vaulina kabi olimlarning korrupsiyaga qarshi kurashda jazo siyosatini optimalashtirish borasidagi nazariy qarashlari o'rganildi. Bu usul korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari / Results

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 205–214²-moddalarida davlat hokimiyati va boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar sifatida korrupsiyaviy qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan. Ular orasida: poraxo'rlik (210–211, 213–214²-moddalar), mansabdorlik bilan bog'liq korrupsion jinoyatlar (JK 205–209-moddalar) uchun tayinlanadigan jazolarni alohida tahlil etish maqsadga muvofiq.

BMTning 2003-yilgi Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va Yevropa kengashining 1999-yilgi Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasida jazolarning mutanosibligi, qonuniyligi va samaradorligiga alohida urg'u berilgan. Xususan, Singapur, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiya uchun keskin jazo choralari (katta miqdordagi jarimalar, katta muddatli ozodlikdan mahrum qilish, mol-mulk musodarasi) korrupsiya darajasini pasaytirishga xizmat qilgan.

Biroq, Yevropaning bir qator mamlakatlari (Fransiya, Germaniya)da qo'llaniladigan korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun majburiy tarzda moddiy zararni qoplash, davlat xizmatida faoliyat yuritishdan uzoq muddatli cheklovlar ham samarali hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi jazo siyosatini samarali olib borishda qonunchilikda nazarda tutilgan jazo choralarining qat'iyligi va muqarrarliligi muhim o'rin tutadi. O'zbekistondagi jazo choralari bir qator davlatlar tajribasi bilan solishtirishganda ularning o'xshash va farqli jihatlari ko'rishimiz mumkin.

Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligida pora olish va berish uchun belgilangan jazo O'zbekiston qonunchiligiga ancha yaqin turadi. Masalan, Rossiya Jinoyat kodeksining 290-moddasi (pora olish) bo'yicha mansabdor shaxs 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortilishi mumkin. Pora berganlik uchun ham (291-modda) o'xshash tartibda 15 yilgacha qamoq jazosi nazarda tutilgan [2].

Shu bilan birga, Rossiya amaliyotida jazo sifatida katta miqdordagi jarimalarni qo'llash holati keng tarqalgan. Qonunga ko'ra, pora miqdorining ko'p barobariga teng jarima tayinlash yoki uzoq muddat davlat lavozimlarini egallash huquqidan mahrum qilish kabi choralar mavjud. Korrupsiya jinoyatlari uchun yuridik shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik ham belgilangan (Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksning 19.28-moddasiga muvofiq, yuridik shaxsga nisbatan katta miqdorda jarima solinadi).

Qozog'iston Respublikasi ham oxirgi yillarda korrupsiya jinoyatlari uchun jazolarni keskinlashtirgan. Qozog'iston Jinoyat kodeksining 366-moddasi (pora olish)ga binoan, oddiy pora olish uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki pora summasining 20–50 barobari miqdorida jarima belgilangan, pora miqdori ortib borgan sari jazo muddati ham ortadi. Ko'p miqdorda pora olganlik yoki tamagirlik yo'li bilan talab qilib olingan pora uchun 7 yildan 12 yilgacha qamoq jazosi qo'llanilishi mumkin, juda ko'p miqdorda yoki uyushgan guruh tarkibida pora olganlik uchun esa 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan [3]. Qonunga muvofiq, pora miqdoriga qarab jarima jazosi ham 20 barobardan 80 barobarigacha oshiriladi. Qozog'istonda pora

berganlik uchun jazo shkalasi ham xuddi shunga yaqin tarzda keskin: pora beruvchiga (367-modda) eng ko'pi 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, shuningdek, pora berish-olishda vositachilik (368-modda) uchun ham 5 yildan 10 yilgacha jazo belgilangan. Qozog'iston qonunchiligi korrupsiya uchun amnistiya yoki shartli ozod etish imkoniyatlarini keskin chekladi. Joriy etilgan o'zgarishlarga binoan, korrupsion jinoyat sodir etgan mansabdorlar jazoni to'liq o'tashlari shart etib qo'yilmoqda. Bu choralar jazoning muqarrarligini oshirishga qaratilgan.

Germaniya jinoyat qonunchiligida (StGB) korrupsiya uchun belgilangan jazolar postsovet davlatlariga nisbatan yumshoqroq tuyulishi mumkin, biroq Germaniyada umumiy huquqiy tizim va ijro mexanizmlari samarali ishlaydi. Germaniya Jinoyat kodeksida mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifasini suiiste'mol qilib pora olishi ikki turga ajratilgan: xizmat vazifasini bajarish evaziga noqonuniy manfaat qabul qilish (passiv pora, §331) va vazifa topshirig'ini buzgan holda pora olish (og'irlashtiruvchi, §332). §331 ga binoan, mansabdorning xizmat vazifasi doirasida qandaydir manfaatni qabul qilishi uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi [4]. Agar bu manfaat sudya yoki arbitr tomonidan qabul qilingan bo'lsa, jazo chegarasi besh yilgacha oshadi. Diqqatga sazovori, Germaniyada pora evaziga vazifa vakolatini buzgan hollar (ya'ni haqiqiy poraxo'rlik, §332) uchun jazo 6 oydan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tarzida belgilangan, og'ir holatlarda, ayniqsa, sudya uchun 1 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishi mumkin. Demak, Germaniyada, odatda, korrupsiya uchun maksimal jazo 10 yildan oshmaydi, biroq jarimalar va ikkinchi darajali choralar (masalan, lavozimni tark ettirish) faol qo'llaniladi. Germaniya qonunchiligi yuridik shaxslar korrupsiyasi uchun jinoiy javobgarlik belgilamagan (korrupsiya uchun jismoniy shaxslar javobgar), ammo Companies Act va boshqa qonunlar orqali kompaniyalarga nisbatan moliyaviy jazo va taqiqlar qo'llanilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, Germaniya kabi mamlakatlarda jazoning muqarrarligi va qonuniylik prinsipi juda yuqori darajada ta'minlanadi, shu bois jazo muddatlarining nisbatan kamligi korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligiga salbiy ta'sir qilmayapti.

Fransiyada ham korrupsiya uchun jazo choralari keskin. Fransuz Jinoyat kodeksining 432-11-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyat vakili yoki mansabdor shaxs pora olganligi (korrupsiya passiv) uchun 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 1 000 000 yevrogacha jarima jazosiga hukm etiladi. Shuningdek, jarima miqdori jinoyat orqali olingan foydaning ikki baravarigacha oshirilishi mumkinligi belgilangan [5]. Korrupsiyaning aktiv shakli (432-11 va 433-1-moddalar – mansabdorni porada og'dirish) ham xuddi shunday tartibda 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Fransiyada ham maksimal jazo muddati 10 yilni tashkil etadi, lekin qo'shimcha ravishda mansabdorlik huquqidan mahrum qilish, mol-mulk musodarasini kabi choralar ham qo'llaniladi. Fransuz qonunchiligida yuridik shaxslar korrupsiyasi uchun javobgarlik nazarda tutilgan: huquqiy shaxslarga nisbatan juda katta miqdorda jarima (ko'p hollarda million yevro va undan ortiq) va ularning faoliyatiga cheklovlar qo'llanishi mumkin (Fransiya Jinoyat kodeksi 131-39-moddasi).

Yevropa Ittifoqi doirasida qabul qilingan hujjatlar ham korrupsiya uchun jazolar "samarali, mutanosib va mudhish" (effective, proportionate and dissuasive) bo'lishi lozimligini talab qiladi [6]. Fransiya va boshqa Yevropa davlatlari qonunchiligi mazkur prinsipga muvofiq ravishda, korrupsioner uchun jazo muqarrar va yetarlicha ta'sirchan bo'lishini ta'minlamogda.

Singapur korrupsiyaga qarshi eng muvaffaqiyatli kurash olib borayotgan davlatlardan biri bo'lib, uning qonunchiligi jazolar qat'iyligi va ijro intizomi bilan ajralib turadi. Singapurda 1960-yilda qabul qilingan Korrupsiyaning oldini olish to'g'risidagi qonun (Prevention of Corruption Act, PCA) asosiy hujjat hisoblanadi. Unga muvofiq, korrupsiya uchun umumiy jazo 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki 100 000 Singapur dollarigacha jarima yoxud har ikkalasini birdaniga

qo'llash belgilangan [7]. Agar jinoyat davlat byudjetiga doir shartnomalar bilan bog'liq bo'lsa, maksimal jazo 7 yilgacha qamoq va 100 ming dollargacha jarima etib belgilangan. Singapurda jazolar nisbatan "o'rtacha" ko'rinsa-da (boshqa ayrim davlatlardagidek 10–15 yil emas), amalda korrupsiya darajasi jahonda eng past bo'lib, bu jazolarning muqarrar qo'llanilishi va qat'iy ijro bilan bog'liqdir. Masalan, Singapurda korrupsiyani tergov qilish byurosi (CPIB) bevosita Bosh vazir idorasiga bo'ysunadi va har qanday mansabdor va fuqaroni sudga torta oladi, "hech kim qonundan ustun emas, barchaga birdek tatbiq etiladi" tamoyili amalda qo'llaniladi [7]. Qat'iy jazo muqarrarligi natijasida, Singapur har yili Transparency International tashkiloti e'lon qiladigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida eng ilg'or o'rnlarni egallab kelmoqda (masalan, CPI 2024 ko'rsatkichi 84 ball, dunyoda 3-o'rin) [8]. Demak, Singapur tajribasi shundan dalolat beradiki, korrupsiyaga qarshi kurashda jazoning muqarrarligi va tezkor tatbiq etilishi uning og'irlik darajasidan ham ta'sirliroq natija beradi.

Yaponiyaning korrupsiyaga oid jinoyat qonunchiligi an'anaviy va o'ziga xos. Yaponiyada mansabdorning pora olganligi uchun umumiy jazo 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishdir (agar pora xizmat vakolatini suiiste'mol qilib muayyan harakatni amalga oshirish evaziga bo'lsa, ba'zi hollarda 7 yilgacha ham bo'lishi mumkin). Pora bergan shaxs esa, odatda, 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki katta miqdorda jarima bilan jazolanadi. Yaponiya qonunchiligida pora beruvchilarga nisbatan yengilroq yondashuv bor, lekin ularni ayab o'tirmaydi. Yaponiya ma'muriy huquqidan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashda qat'iy xizmat etikasi qonunlari ham mavjud. Masalan, davlat xizmatchilari uchun alohida "Manfaatlar to'qnashuvi va etika qonunlari" qabul qilingan bo'lib, ular har qanday noqonuniy moddiy manfaat olishni taqiqlaydi va ichki tartib-intizom orqali javobgarlikka tortadi [9]. Yaponiyada jinoiy jazolar muddati nisbatan yuqori emas (10 yillik hukmlar deyarli qo'llanilmaydi), ammo jazo muqarrar va obro'y yo'qotishi juda kuchli chora sifatida natija beradi. Shuningdek, Yaponiyada, xalqaro majburiyatlarga ko'ra, 1998-yildan xorijiy mansabdorlarga pora berish ham jinoyat deb belgilangan, bu norma "Noadolat raqobatning oldini olish to'g'risida"gi qonunda aks etgan (18-modda). Umuman, Yaponiya politsiyasi va prokuraturasi korrupsiyani ayovsiz fosh etadigan tizimga ega, shu bois mamlakatda korrupsiya darajasi past (CPI 2024 da 20-o'rin, 71 ball) [9].

Xitoy Xalq Respublikasi korrupsiya uchun jinoiy jazolar borasida dunyoda eng qat'iy choralar qo'llaydigan mamlakatlardan biri. Xitoy jinoyat qonunchiligida poraxo'rlik va vazifadan foydalanib qilingan mansab jinoyatlari uchun jazo hatto o'lim jazosigacha borishi mumkin. Jumladan, Xitoy jinoyat kodeksining 383-moddasiga ko'ra juda katta miqdorda pora olgan mansabdorga nisbatan umrbod qamoq yoki ayrim hollarda o'lim jazosi ham qo'llanilishi mumkin. Amalda Xitoyda har yili yuzlab mansabdorlar korrupsiya uchun qatl etilishi haqida ma'lumotlar bor, jumladan 2021-yil davomida ming nafardan ortiq amaldorga oliy jazo qo'llanilgani to'g'risida ma'lumotlar bor [10]. Bundan tashqari, poraxo'r mansabdorning o'z oilasi uchun sarf qilingan xarajatni to'latish kabi choralar ham qo'llanilishi aytilgan. Albatta, bunday asabiy choralar jamiyatga kuchli ta'sir o'tkazish maqsadida joriy qilingan. Xitoy qonunlariga binoan, poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarning yengilroq holatlari uchun 5–10 yil atrofida ozodlikdan mahrum qilish jazolari belgilangan, 50 ming yuandan ortiq pora uchun 10–15 yil, 500 ming yuandan ortiq pora uchun esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi kabi choralar nazarda tutilgan. Shuningdek, Xitoyda mansab vakolatini suiiste'mol qilish yoki vazifasini vijdonsizlik bilan bajarmaslik (mansabga sovuqqonlik) kabi jinoyatlar uchun 7 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, har bir davlat o'z tarixi, huquqiy tizimi va ijro amaliyotidan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi jazolash siyosatini yuritadi. Masalan,

Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlar O'zbekistonga yaqin bo'lgani sababli ularda ham 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazolari belgilanganini ko'ramiz. Germaniya va Fransiya kabi Yevropa davlatlarida esa ozodlikdan mahrum qilish muddatlari nisbatan kamroq (3–10 yil atrofida), lekin boshqa ta'sirchan choralar va institutsional nazorat kuchli. Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlar jazolarni me'yordan oshirmasdan, lekin amalga oshirishda muqarrarlik va shaffoflikka urg'u bergan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurash samarasi faqat jazo muddatining uzun-qisqaligiga bog'liq emas, balki jazoning muqarrarligi, hokimiyat tizimidagi ochiqlik, jamoatchilik nazorati hamda tarbiyaviy profilaktika choralari bilan uzviy bog'liqdir.

Korrupsiyaga qarshi xalqaro huquqiy hujjatlar milliy qonunchiliklar uchun muayyan standart va talablarni belgilab beradi. BMT Konvensiyasi davlatlardan poraxo'rlik, mansab suiiste'moli, o'zlashtirish va rastrata qilish, hisob-kitoblarni qalbakilashtirish, noqonuniy boyish kabi korrupsiyaning turli ko'rinishlarini jinoyat sifatida belgilashni talab qiladi. Shu bilan birga, Konvensiya jinoyat uchun belgilanadigan sanksiyalar xususida qat'iy bir me'yorlarni bermaydi. UNCACning 30-moddasida, xususan, davlatlar jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli va samarali jazo choralarni qo'llashlari lozimligi aytilgan. Bunda jazolarning samarali, mutanosib va natija beradigan ("effective, proportionate and dissuasive") bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi [6]. Bu prinsip, shuningdek, Yevropadagi xalqaro hujjatlarda ham qayd etilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining 1997-yilda qabul qilingan YEI yoki davlat mansabdorlarining poraxo'rlikiga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasida ishtirokchi davlatlar poraxo'rlik uchun samarali jinoiy javobgarlik choralarni belgilashlari shart va jazolar samarali, mutanosib hamda korrupsioner uchun qo'rquv soluvchi darajada bo'lishi lozimligi qayd etilgan [6]. Shu bilan birga, xalqaro konvensiyalar davlatlarga muayyan erkinlik ham qoldiradi – har bir mamlakat o'z huquq tizimi doirasida jazo turlarini belgilashi mumkin, lekin ular korrupsiyaga qarshi umumiy strategiyaga muvofiq bo'lishi kerak.

Xalqaro konvensiyalar yana bir muhim masala – yuridik shaxslarning javobgarligiga alohida e'tibor qaratadi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 26-moddasida davlatlar yuridik shaxslarni korrupsiya uchun jinoiy, fuqarolik yoki ma'muriy javobgarlikka torta oladigan choralarni joriy etishlari zarurligi bayon etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad – kompaniyalar, korxonalar o'z xodimlarining korrupsiyasi uchun jazodan qochmasligi, ularga nisbatan ham samarali ta'sir choralari ko'rilishidir. Yevropa Ittifoqi va OECD konvensiyalarida ham shu talab bor. Masalan, OECDning 1997-yilgi Xorijiy mansabdorlarga pora berishga qarshi Konvensiyasida kompaniyalarga nisbatan samarali sanksiyalar qo'llanilishini kafolatlashni talab qiladi [6].

Shunday qilib, xalqaro hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashda jazo choralari mustahkam huquqiy asosga ega bo'lishi, korrupsiya uchun jazoga tortishda davlatlar o'rtasida hamkorlik qilinishi va eng muhimi, jazolar adolatli, samarali hamda qonunbuzarni cho'chitadigan darajada qat'iy bo'lishi kerakligini belgilar ekan, O'zbekistonning milliy qonunchiligi ham shu talablarga muvofiq ravishda takomillashib bormoqda. 2019-yilgi jazolarni qat'iylashtirish islohotlari, 2017–2024 yillarda korrupsiyaga qarshi qonunlarning qabul qilinishi bevosita xalqaro majburiyatlarni bajarishga qaratilgandir. Jumladan, 2017-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi va 2024-yilda kuchga kirgan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunlar xalqaro konvensiya talablarini implementatsiya qilish yo'lidagi choralardir. Yevropa Ittifoqi hujjatlarida nazarda tutilganidek, O'zbekiston ham korrupsiya uchun jazolar borasida "aqliy muvozanat"ga erishishga intilyapti – jinoyat uchun jazo murosasiz va muqarrar, biroq insonparvarlik prinsiplariga ham xilof bo'lmaydigan tarzda qonuniylilik ta'minlanayapti.

Transparency International ham har yili chiqaradigan Korrupsiyani idrok etish indekslarida O'zbekiston kabi davlatlarga sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish, aybdorlarga jazo muqar-

rarligini ta'minlash va mustaqil antikorrupsiya tuzilmalarini kuchaytirishni tavsiya etadi. Shu bilan birga, OBSE va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar korrupsiyaning profilaktikasida faqat jazoga emas, balki davlat boshqaruvini oshkora qilish, elektron hukumat orqali inson omilini kamaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga oid choralarni ham tavsiya etmoqda, bu choralar jazo muolajalari bilan birga qo'llanilsa, tizimli ta'sir ko'rsatadi [11].

Professor M.Yu. Dvovreskiyning ta'kidlashicha, korrupsiyaga qarshi kurashda jazo tayinlash faqat repressiv (ozodlikdan mahrum etish, qamoq va h.k.) choralar bilan cheklanmasligi lozim. Uning fikricha, jazo nafaqat jazolovchi, balki ijtimoiy adolatni ta'minlovchi mexanizm sifatida ham xizmat qilishi kerak. Buning uchun jamiyatda fuqarolik ishonchini tiklaydigan va manfaatdor shaxslarga real ta'sir ko'rsatadigan jazo shakllarini qo'llash muhimdir. Jumladan:

- mol-mulkni to'liq musodara qilish – jinoyatdan kelgan daromadni yo'qqa chiqarish orqali jazoning iqtisodiy ta'sirini kuchaytirish;
- davlat xizmatidan uzoqlashtirish (umrbod yoki uzoq muddatga) – fuqarolik jamiyatidagi ishonchni tiklash va davlat apparatidagi tazyiqni kamaytirish;
- jazoning shaxs uchun haqiqiy zarar keltiruvchi shakllari – manfaatdorlikni yo'qotishga qaratilgan ta'sir choralari (masalan, davlat buyurtmalarida ishtirokdan cheklash, saylovlarda qatnashishni taqiqlash va h.k.) [12].

Shu bilan birga, olim jazo tayinlashda ratsional strategiya zarurligini uqtiradi. Bu strategiyada jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishi uchun javobgarlik xavfini ongli ravishda his etishi shart. Ya'ni, shaxs jinoyat sodir etish paytida uning oqibati qanday bo'lishi, qanday iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jazolarga uchrashi mumkinligini oldindan anglab turishi lozim. M.Yu. Dvovreskiyning fikricha bunday yondashuv jazoning profilaktik vazifasini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi [12].

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya uchun jazoni samarali tayinlash faqat qattiq sanksiyalar bilan emas, balki intellektual, adolatli va tahlilga asoslangan davlat siyosatini yuritish orqali ta'minlanadi.

Professor V.N. Burlakov korrupsiyaga qarshi kurash jinoiy-huquqiy profilaktika vositalarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi va bu borada qator amaliy takliflar ilgari suradi.

Birinchidan, u "poraxo'rlik" va "korrupsiya" tushunchalarini aniq va izchil huquqiy ta'riflash zarurligini ta'kidlaydi. Hozirgi huquqiy amaliyotda ushbu ikki atama ko'pincha o'zaro aralashib ketadi, bu esa huquqni qo'llashda noaniqliklarga va antikorrupsiya siyosatining samaradorligi susayishiga sabab bo'ladi. Aniq terminologik yondashuv nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida, balki ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida "korrupsiya" tushunchasi, asosan, poraxo'rlik va mansab vakolatini suiste'mol qilish kabi jinoyatlarni nazarda tutadi. Shuni inobatga olgan holda, milliy qonunchilikdagi aniqlikni ta'minlash va korrupsiyani jinoiy-huquqiy emas, qisman siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy kategoriya sifatida ham izohlash imkonini yaratish maqsadida, quyidagi ta'rif taklif etilmoqda:

"Korrupsiya – bu shaxsning o'ziga berilgan mansab yoki xizmat vakolatlaridan yoxud ta'sir o'tkazish imkoniyatlaridan shaxsiy yoki o'zga shaxslar (guruh, tashkilot, oila a'zolari) manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish yoki shunday nafni taqdim etish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek davlat boshqaruvi, xo'jalik yoki jamoat munosabatlarida shaxsiy yoki guruh manfaatlari yo'lida qaror qabul qilish jarayoniga noqonuniy ta'sir ko'rsatishning turli shakllari, xususan, muayyan iqtisodiy yoki siyosiy qarorlarni o'z foydasiga qabul qildirish uchun manfaatli guruhlar orqali bosim o'tkazish (lobbizm), xizmat yoki mansab masalalarida qarindoshlik yoki shaxsiy yaqinlik asosida ustunlik berish (nepotizm), muayyan shaxs yoki guruhni boshqalarga

nisbatan asossiz qo'llab-quvvatlash yoki himoya qilish (proteksionizm), shuningdek rasmiy mavqe yoki shaxsiy aloqalardan foydalanib qaror qabul qiluvchi shaxslarga ta'sir ko'rsatish orqali noqonuniy imtiyoz yoki naf olish (ta'sir savdosi) kabi yashirin mexanizmlar orqali amalga oshiriladigan qonunga xilof faoliyat".

Ikkinchidan, muallif korrupsiya uchun javobgarlikni belgilaydigan mustaqil norma qabul qilishni taklif etadi. Mazkur norma faqat pora berish va olishga emas, balki korrupsiyaning barcha ko'rinishlarini — tijorat poraxo'rliqi, manfaatlar to'qnashuvi, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish, byudjet mablag'larini talon-toraj qilish kabi holatlarni qamrab olishi lozim. Bu orqali huquqbuzarliklarni aniqroq kvalifikatsiya qilish va adolatli jazo tayinlash imkoni paydo bo'ladi.

Shunga ko'ra, korrupsiyaga oid jinoyatlar deganda, bu mansabdor shaxslar yoki ularga tenglashtirilgan maxsus subyektlar tomonidan o'z xizmat vakolatlari, rasmiy mavqeyi yoki xizmat doirasidan qasddan, qonunga xilof ravishda, shaxsiy, guruh yoki boshqa manfaatlarini ko'zlab, qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tahdid soluvchi va jinoiy javobgarlikka sabab bo'luvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar majmuasi, kabi ta'rifni berish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, V.N. Burlakov korrupsion jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mansabdor shaxslar ishtirokidagi korrupsion sxemalar jamiyat va davlat uchun yuqori ijtimoiy xavf tug'dirishi sababli, bunday shaxslarga nisbatan jazo sanksiyalari qat'iyroq bo'lishi kerak.

Xususan, jazolar samaradorligi borasida O'zbekiston tajribasida ham ayrim muammolar kuzatilmoqda. Qonun bo'yicha jazo choralari nisbatan qat'iy belgilanganiga qaramay, ularning ijrosi va haqiqiy tatbiqi doim ham to'liq ta'minlanmayapti. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2024-yilgi Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzasida keltirilishicha, 2024-yil davomida O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Respublika sudlari tomonidan jami 4 649 ta jinoyat ishi bo'yicha 7 354 nafar shaxs aybdor deb topilgan. Bu raqamlar korrupsiyaga qarshi kurash tizimidagi huquqni qo'llash amaliyoti faolligini va davlat siyosatida bu soha ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'layotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, jazo turlarining taqsimoti korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazo siyosatida individuallashtirish va profilaktik ta'sirni ta'minlashga intilish mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, 1 525 nafar shaxs (20 foiz) ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan bo'lsa, 2 991 nafariga axloq tuzatish ishlari, 1 080 nafariga ozodlikni cheklash, 1 121 nafariga jarima, 7 nafariga majburiy jamoat ishlari, 5 nafariga muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari tayinlangan.

Bundan tashqari, sudlar ayrim hollarda gumon qilinuvchilarning shaxsiy holati va jinoyatning xususiyatini hisobga olgan holda yengilroq choralarni qo'llagan: 62 nafar shaxsga shartli hukm chiqarilgan, 265 nafarga nisbatan jazo tayinlanmagan, 86 nafari jazodan ozod qilingan hamda 212 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan [13]. Jazolarning bunday samarasiz qo'llanilishi korrupsiyaga qarshi kurashdagi keng profilaktika ta'sirini pasaytirib, tizimga nisbatan ishonchsizlikni oshiradi.

To'rtinchidan, aholining huquqiy savodxonligini oshirish va maxsus antikorrupsiya ta'lim dasturlarini joriy etish. Fikrimizcha, fuqarolarni korrupsiyaning oqibatlarini, huquqiy tavakkallari va murojaat kanallari haqida xabardor qilish orqali jamiyatda antikorrupsiya madaniyatini shakllantirish mumkin. Bu ta'lim maktab, universitet va davlat xizmatchilari uchun qayta tayyorlash kurslari darajasida tashkil etilishi lozim.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurashda jinoiy-huquqiy ta'sir choralari orasida mol-mulkni musodara qilish instituti alohida o'rin tutadi. Professor M.S.Kachelinnig ta'kidlashicha [14],

musodara faqat jazolovchi chora emas, balki korrupsion faoliyatdan kelib chiqqan moddiy foydani yo'q qilish va uni davlat manfaatiga qaytarish imkonini beradigan ta'sirchan mexanizmdir. Ushbu institut iqtisodiy va huquqiy samaradorlik nuqtayi nazaridan xalqaro tajribada o'zini oqlagan (bir qator olimlar ham shu mazmundagi g'oyani qo'llab-quvvatlashmoqda) [15].

Yevropa Kengashining 1999-yilgi Konvensiyasi jinoyat natijasida olingan daromadlar musodarasini ta'minlash bo'yicha davlatlarning huquqiy majburiyatlarini nazarda tutadi. BMTning 2003-yilgi Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (31-modda) davlatlarga korrupsiya jinoyatlaridan olingan noqonuniy daromad, mol-mulk va foydalanilgan aktivlarni musodara qilish mexanizmlarini ta'minlashni buyuradi.

T.I.Vaulina korrupsiyaga oid jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va ular uchun jazo choralari takomillashtirish borasidagi murakkab muammolarga kompleks yondashuvni ta'minlash maqsadida, huquqiy klassifikatsiyaning yaxlit tizimini yaratish, nomoddiy manfaatlarini qamrab olgan tarkibiy belgilarni jinoiy-huquqiy tartibga solish, yuridik shaxslarning javobgarligini joriy etish korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional asoslarini mustahkamlashni taklif etadi. Shu bilan birga, jazo choralari keskinlashtirish, ayniqsa, mol-mulk musodarasini, davlat xizmatidan umrbod chetlatish, xalqaro sanksiyalar va davlat xaridlarida ishtirokni cheklash orqali jazoning samaradorligi funksiyasi oshiriladi. Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirish maqsadida jazoning muqarrarlari va sud amaliyotidagi yagona yondashuvni ta'minlash muhim hisoblanadi [16].

Boshqa olimlar [17] esa, korrupsiyaga oid jinoyatlarning jinoiy-huquqiy profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida, *birinchidan*, "korrupsiya" tushunchasini huquqiy jihatdan aniq va universal ta'riflash hamda nomoddiy shakllarini (lavozim, imtiyoz, ijtimoiy ta'sir) jinoiy tarkib sifatida e'tirof etish, *ikkinchidan*, yuridik shaxslar jinoiy javobgarligini joriy etish, ularga nisbatan moliyaviy va ma'muriy sanksiyalar qo'llash, *uchinchidan*, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirish: korrupsiya orqali orttirilgan daromadlarni to'liq musodara qilish, davlat xizmatidan umrbod chetlatish, xalqaro sanksiyalar tizimini qo'llash, chet el aktivlarini bloklash va davlat xaridlaridan cheklash mexanizmlarini tatbiq etishni taklif etmoqdalar.

Shunday qilib, jinoiy javobgarlikning barcha elementlari to'laqonli va samarali amalga oshirilgan taqdirdagina, davlat hokimiyatining yuqori pog'onalarida korrupsiyani cheklash va uning kengayishini to'xtatish mumkin bo'ladi. Bu esa jinoiy jazo faqat jazolovchi vosita emas, balki davlat hokimiyatini sog'lomlashtirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini tiklash vositasi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Poraxo'rlik jinoyatlari davlat hokimiyati, boshqaruv va sud-huquq tizimlariga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, bu sohadagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, huquqni qo'llashdagi birxillikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni tiklash maqsadida quyidagi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilishi zarur:

1. Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartishlar kiritish [18]. Xususan, jinoiy javobgarlikni differentsiatsiya qilish, ya'ni turli holatlar (takroriylik, tashkil etilgan guruh, mansabdor shaxsga ta'sir ko'rsatish maqsadi va boshqalar) uchun jazo choralarining darajasi va miqyosini aniq belgilash zarur. Bu qonun normalarining aniqligi va amaliyotda to'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga xizmat qiladi.

2. Pora olish va sovg'ani farqlash mezonlarini aniq belgilash. Poraxo'rlik jinoyati doirasida qo'llaniladigan "pora" tushunchasining moddiy miqdori, shakli va qonuniy sovg'alardan farqini belgilash kerak. Qonunchilikda buning aniq ifodalanishi huquqni qo'llovchi organlar uchun aniq yo'nalish beradi va huquqiy noaniqliklarni kamaytiradi. Bunday yondashuv fuqarolar va mansabdor shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy chegaralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish. Poraxo'rlik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda yagona amaliyotni ta'minlash, huquqni qo'llashda turlicha talqinlar va xatolarning oldini olish maqsadida huquqni qo'llovchi organlar va sudlar uchun aniq va mantiqiy asoslangan metodik tavsiyalar, sharhlar ishlab chiqish talab etiladi. Bu nafaqat qonun normalarining to'g'ri talqin etilishiga, balki sudlov adolatining ta'minlanishiga ham xizmat qiladi.

4. Amaliyotda to'plangan ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilish. Qonun normalarining samarali qo'llanilishi uchun amaldagi sud-tergov tajribasini ilmiy asosda tahlil qilish zarur. Sud qarorlari, tergov natijalari va statistik ma'lumotlar negizida korrupsiya jinoyatlarini aniqlash, tergov qilish va jazolashdagi kuchli va zaif tomonlarni baholash, shuningdek, islohotlar uchun takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, respublikada korrupsiyaga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy choralari takomillashtirish yo'nalishida quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

Birinchidan, sudlar faoliyatida korrupsiyaga doir ishlarga ustuvorlik berish kerak. Masalan, puxta dalil asosida ayblangan amaldorlarga nisbatan jazoni yengillatib yuborish holatlariga chek qo'yish, ayrim hollarda shartli hukm qo'llashni cheklash taklifi muhokamaga arziydi. Jazo muqarrarligiga doir yana bir chora – korrupsiya uchun jazodan istisno qilib bo'lmazlikni qonun darajasida mustahkamlash. Masalan, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan rag'batlantiruvchi normalarni qo'llamaslik (JKning 72, 73, 74-moddalari). Umuman olganda, "jazodan qochib qutulish yo'q" tamoyilini amalga oshirish qonunchilikni takomillashtirishda asosiy shior bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, jazolarning majmuaviyligini ta'minlash. Korrupsiyaga qarshi faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan emas, balki moliyaviy va boshqa ta'sir choralari bilan kurashish samaraliroq. Shu bois, qonunchilikda jarima, mulkni musodara qilish, ma'lum huquqlardan mahrum etish kabi jazo turlarini yanada faol qo'llash lozim. Masalan, pora oluvchi va pora beruvchining noqonuniy orttirgan daromadlarini to'liq musodara qilish va qo'shimcha ravishda ularni katta miqdorda jarimaga mahkum etish iqtisodiy jihatdan tiyib turuvchi mexanizm bo'ladi. Buning e'tiborli jihat shundaki, jarima miqdori belgilanganida inflyatsiya va pora summaları real qadrlarini inobatga olish. Amaldagi Kodeksda jarima bazaviy hisoblash miqdoriga bog'liq (masalan, 300–600 baravar), ammo ayrim hollarda pora yoki yetkazilgan zarar summasidan kelib chiqib nisbiy jarima tayinlash ham mantiqan to'g'ri. Masalan, Rossiya va Qozog'iston tajribasida pora summasining bir necha barobari miqdorida jarima solish mexanizmi bor, O'zbekistonda ham shuni joriy etish o'rinli bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, mulkiy jazo choralari kuchaytirish uchun korrupsion jinoyatchiga tegishli deb topilgan aktivlarni davlat foydasiga musodara qilish tartibini takomillashtirish zarur. Bunda, mos ravishda, Jinoyat-protsessual kodeksiga tergovda mulkka arest solish, uni tez musodara qilish bo'yicha normalar kiritilishi mumkin.

Uchinchidan, yuridik shaxslarning javobgarligini joriy etish. Ko'pgina mamlakatlarda korrupsiya faqat shaxsiy emas, balki institutsional muammo sifatida ko'riladi. Ko'p hollarda pora tijorat tashkilotlari manfaati uchun beriladi yoki olinadi (tenderlarda yutuqqa erishish, imtiyoz olish va h.k.). Shu sababli, xalqaro standartlarga muvofiq, yuridik shaxslar (kompaniyalar, korxonalar)ni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqish lozim. Agar korxona rahbariyati yoki nomidan pora berilgan bo'lsa, u holda ana shu korxonaga nisbatan katta jarima, faoliyatini cheklash, davlat buyurtmalaridan mahrum qilish kabi sanksiyalar qo'llanishi darkor. Bunday me'yorlar ayrim Yevropa davlatlarida, AQSH va Qozog'istonda mavjud. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda qonunchilik tashabbusi sifatida "Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi to'g'risida" alohida qonun

qabul qilish yoki Jinoyat kodeksiga maxsus bob kiritish mumkin. Bu, bir tomondan, chet el investorlari uchun ham tushunarli tartib bo'ladi (ular o'z mamlakatlarida bunday talablarga ko'nikkan), ikkinchidan, kompaniyalarni ichki komplayens va korrupsiyaga qarshi siyosati bo'lishga majbur etadi. Masalan, BMT Konvensiyasi tavsiyalariga binoan, yuridik shaxslar o'z xodimlari korrupsiyasining oldini olish uchun ishonchli komplayens tizimiga ega bo'lishi lozim, aks holda kompaniyaning o'zi jazoga tortilar ekan. O'zbekistonda 2022-yilda Prezident farmoni bilan yirik kompaniya va idoralarda komplayens-nazorat tuzilmasi joriy etish boshlangan, bu istiqbolda yuridik shaxslarning javobgarligi uchun zamin tayyorlashi mumkin.

To'rtinchidan, martabali mansabdorlar uchun jazoni va nazoratni kuchaytirish. Korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi uning lavozimiga qarab ham belgilanishi mumkin. Oliy darajadagi mansabdor, masalan, vazir, hokim pora olsa, uning jamiyatga zarari oddiy inspektor yoki quyi darajali xizmatchiga nisbatan kattaroq bo'lishi ayon. Shunday ekan, qonunchilikda yuqori mansabdorlarga nisbatan jazoni kuchaytiruvchi normalar joriy qilishni o'ylab ko'rish mumkin. Ayrim davlatlarda (masalan, Janubiy Koreya, Hindiston) "voyajskoy korrupsiya" deb ataladigan – eng yuqori amaldorlar poraxo'rliqi uchun jazo muddatlarini alohida belgilovchi qonunlar mavjud. Shundan kelib chiqib, amaldagi Jinoyat kodeksiga "mas'ul mansabdor shaxs" atamasini qayta kiritish maqsadga muvofiq. Bu yo'nalishda qonunchilikni yanada aniqlashtirish mumkin: muayyan yuqori lavozim egalari tomonidan sodir etilgan korrupsiya uchun minimal jazo chegarasini oshirish (masalan, shartli ravishda ozod etish yoki jazoni yengillatishni taqiqlash) kabi qoidalar qo'shish mumkin.

Beshinchidan, korrupsiyadan jabr ko'rgan jamiyat manfaatlarini himoyalash. Korrupsiya faqat pora beruvchi va oluvchi o'rtasidagi ish emas, balki u butun jamiyat manfaatiga zarar yetkazadi. Shuning uchun korrupsionerlarga jazo tayinlashda nafaqat ularning qilmishi uchun jazo, balki keltirilgan zararni qoplash, jamiyatga mulkiy yoki ma'naviy tovon to'latish masalalarini ham ko'rib chiqish lozim. Masalan, agar pora evaziga muayyan tender yoki loyiha adolatsiz berib yuborilgan bo'lsa, sud hukmida bu bitimni bekor qilish va uni qayta ko'rib chiqish chorasi ko'rilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki, agar pora olish oqibatida davlat byudjetiga zarar yetgan bo'lsa, u zararni tovon puli sifatida undirish mexanizmlarini kuchaytirish kerak (masalan, foizlar bilan qaytarish, penya qo'llash). Hozirgi qonunchilikda bevosita bunday normalar kam uchraydi, ko'proq umumiy tartibda moddiy zararni qoplash degan qoidalar bor. Korrupsiya ishlarida davlat manfaatiga yetkazilgan zararni undirishni bosh prokuratura yoki moliya organlariga yuklashni tartibga solish kerak. Bu, o'z navbatida, korrupsionerning jazosini faqat qamalishi bilangina emas, balki keltirilgan zararni qoplatish bilan to'liqroq adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi jazo siyosatida xalqaro standartlarga muvofiq muayyan islohotlarni amalga oshirdi va jazo choralari bo'yicha qonunchilik bazasi shakllandi. Endilikda uning ijtimoiy samaradorligi, birinchi navbatda, jazoning muqarrarligini ta'minlashga, profilaktik choralarni kuchaytirishga va jamoatchilik bilan muloqotni yaxshilashga bog'liq.

Jazo muqarrar va qochib qutulib bo'lmaydigan bo'lsa, xalq orasida korrupsiyaga murosasizlik kayfiyati kuchayadi va bunday jazo haqiqiy tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Korrupsiya – jamiyat tanazzulining sababi, unga qarshi kurash – barcha uchun adolat muhitini ta'minlash vositasi ekanini unutmaylik.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 09.08.2023 й., 03/23/860/0571-сон; 05.06.2024 й., 03/24/931/0402-сон; 26.02.2025 й., 03/25/1038/0188-сон // lex.uz
2. Россия Федерациясининг Жиноят кодекси // <https://www.consultant.ru/УК РФ Статья 290. Получение взятки \Консультант Плюс>
3. https://kodeksy-kz.com/ka/ugolovnyj_kodeks/
4. Relevant provisions of the German Criminal Code // policehumanrightsresources.org
5. doctrine.fr
6. Convention against corruption involving public officials // eur-lex.europa.eu
7. Prevention Of Corruption Act // cpib.gov.sg
8. Сравнение профилей стран Узбекистан и Сингапур // [Uzbekistan anticor.world](https://uzbekistananticor.world)
9. Сравнение профилей стран Узбекистан и Япония // [Uzbekistan anticor.world](https://uzbekistananticor.world)
10. Korruptsiyaga qarshi kurash samaradorligi jazoning muqarrarligidami yoki uning og'irligida? - ekspert bilan suhbat // kun.uz
11. Uzbekistan's Corruption Crackdown: Progress or Perpetual Crisis? thediplomat.com.
12. Дворецкий М.Ю. Направления оптимизации уголовной ответственности за преступления коррупционной направленности на современном этапе противодействия преступности // Вестник ТГУ. 2009. № 12 (80). С. 425–432.
13. Ўзбекистон Республикасининг Коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги миллий маърузаси. 2024 йил.
14. Качелин М.С. Международно-правовые аспекты борьбы с коррупцией: Дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.10. – Москва: Российский университет дружбы народов, 2010. – 152 с.
15. Кузнецов А.В. Некоторые вопросы квалификации преступлений коррупционной направленности с учетом разъяснений Пленума Верховного Суда РФ // Вестник Казанского юридического института МВД России. – 2013. – № 3(13). – С. 74–82; Рахметов С.М. О ходе имплементации норм международных конвенций по вопросам борьбы с коррупцией в уголовное законодательство Республики Казахстан // Вестник Института законодательства Республики Казахстан. – 2017. – № 2 (47). – С. 103–109.
16. Ваулина Т.И. Ответственность за коррупционные преступления: международный и уголовно-правовой аспекты // Российское право: образование, практика, наука. – 2016. – № 6. – С. 37–40.
17. Фаткулин С.Т., Грищенко В.А. Понятие должностных преступлений и проблемы их предупреждения // Вестник Челябинского государственного университета. Серия: Право. 2019. Т. 4, вып. 3. – С. 69–80.; Малышева Ю.Ю. Понятие коррупционного преступления по уголовному законодательству современной России // Угрозы и безопасность. – 2012. – № 36 (177).
18. Сенцов А. С., Волколупова В.А. Вопросы квалификации дачи взятки и посредничества во взяточничестве, возникающие в современной правоприменительной практике // Актуальные проблемы экономики и права. – 2016. – № 1. – С. 180–188. DOI: <http://hdl.handle.net/11435/2255>; Masters A. Corruption in sport: From the playing field to the field of policy // Policy and Society. 2015. Vol. 34, No. 2. P. 111–123. DOI: 10.1016/j.polsoc.2015.04.002.

УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ОТ ВОВЛЕЧЕНИЯ В ПРЕСТУПНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ анализ уголовного законодательства зарубежных стран



Майоров Андрей Владимирович

доктор юридических наук,
доцент, Уральский
государственный юридический
университет, Екатеринбург,
Россия

yuridik fanlar doktori, dotsent,
Ural davlat yuridik universiteti,
Yekaterinburg, Rossiya

Doctor of Law, Associate
Professor, Ural State Law
University, Yekaterinburg,
Russia

Аннотация. Статья посвящена анализу уголовно-правовой охраны несовершеннолетних от вовлечения в преступную деятельность на основе законодательства зарубежных стран. Рассмотрены основные принципы уголовно-правовой охраны несовершеннолетних от вовлечения в преступную деятельность, а также особенности реализации данного института в сравнении с российским уголовным законодательством. Исследована проблема охраны несовершеннолетних от вовлечения в преступную деятельность с учетом развития цифровых технологий и их использования в преступных целях. В завершении сформулированы выводы.

Ключевые слова: вовлечение несовершеннолетних, вовлечение в преступную деятельность, преступность, охрана несовершеннолетних, уголовное законодательство зарубежных стран.

CRIMINAL AND LEGAL PROTECTION OF MINORS FROM INVOLVEMENT IN CRIMINAL ACTIVITY (ANALYSIS OF CRIMINAL LEGISLATION OF FOREIGN COUNTRIES)

Abstract. This article analyzes criminal law protection of minors against involvement in criminal activity based on the legislation of foreign countries. It examines the basic principles of criminal law protection of minors against involvement in criminal activity, as well as the specifics of implementing this institution in comparison with Russian criminal law. The issue of protecting minors from involvement in criminal activity is examined, taking into account the development of digital technologies and their use for criminal purposes. Conclusions are provided.

Keywords: involvement of minors, involvement in criminal activity, crime, protection of minors, criminal legislation of foreign countries.

Несовершеннолетние все чаще становятся вовлеченными в преступную деятельность, количество преступлений, совершенных несовершеннолетними или при их соучастии растет, на что указывают проводимые криминологические исследования в этой области [6; 7; 8; 10]. Возрастные особенности несовершеннолетних обуславливают их уязвимость, под которой понимается подверженность воздействию, базирующаяся при определенном сочетании индивидуально-психологических особенностей личности: неустоявшаяся психика; трансформация мотивационной структуры; несформированность системы ценностей; низкие адаптивные возможности [3, с. 631]. Вовлекаются несовершеннолетние в преступления различной направленности и степени тяжести, от